SCIENCE SHINE
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
Issue 13, Volume 1 May 10, 2024

KARL POPPER FALSAFIY QARASHLARINING SHAKLLANISHI

Ikrom Jomurodov Ilhom o‘g‘li
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti
E-mail: jomurodovikrom@gmail. com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Karl Popperning ilmiy-falsafiy qarashlari, Karl Popperning ijtimoiy-falsafiy fikrlarining yangi davr ilm-fani taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qilish, Karl Popperning ilmiy merosini o‘rganish va uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari haqidama’lumotlar atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Karl Popper va uning falsafiy qarashlari, postpozitivizm, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, ochiq va yopiq jamiyat, XX asr G‘arbiy Yevropa falsafasi, inson motivlari majmuasi.

Аннотация: В данной статье представлены научно-философские взгляды Карла Поппера, анализ значения социально-философских мыслей Карла Поппера в развитии современной науки, изучение научного наследия Карла Поппера и сведения о его социально-философских взглядах. рассмотрены подробно.

Ключевые слова: Карл Поппер и его философские взгляды, постпозитивизм, социально-философские взгляды, открытое и закрытое общество, западноевропейская философия XX века, комплекс человеческих мотивов.

Abstract: In this article, the scientific-philosophical views of Karl Popper, the analysis of the significance of Karl Popper’s socio-philosophical thoughts in the development of modern science, the study of the scientific heritage of Karl Popper and the information about his socio-philosophical views are covered in detail.

Keywords: Karl Popper and his philosophical views, postpositivism, socio-philosophical views, open and closed society, 20th century Western European philosophy, complex of human motives.

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Buning uchun, avvalo, asriy an’analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma’naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak.

Biz ko‘p masalalarda g‘arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualism, egoizm qarashlarini ilohiylashtirishbilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularnihisobga olishimiz, keraklisini e’tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur.

XX asrning oxiri - XX asrning boshlaridagi davr shu bilan ajralib turadiki, falsafiy maktablar XIX asr ikkinchi yarmida ijod qilgan mutafakkirlarning g‘oyalarini rivojlantirib, to‘plagan ilmiy bilimlarni Gegeldan keyingi davrdagi falsafiy asoslarning biri atrofida birlashtirishga harakat qildilar.

Karl Raymund Popper jahon falsafasi postpozitivizmining asosiy yirik vakillaridan biri hisoblanadi. Avstriyalik va britaniyalik faylasuf va sotsiolog Karl Raymond Popper 1902-yilning 28-iyulida Vena shahrida yurist oilasida tavallud topdi. Uning otasi Simon Zigmund Karl Popper Vena universitetida professor bo‘lgan va u sotsiologiya, politologiya, falsafa fanlari bilan qiziqqan. Karl Popper bolaligidan ko‘plab falsafiy ilmlar bilan shug‘ullangan.

XIX asr 30-yillardayoq Popper yangi pozitivizmning induktivizmi, ma’noning verifikatsiyachilik nazariyasi, fan asosini tajribaviy tabiatni hodisa sifatida talqin qilishni qattiq tanqid ostiga olgan edi. U ilmiy bilishda metafizikaning o‘rni va metafizik (an’anaviy falsafiy) muammoni oqlash masalasini qo‘ygan edi. U shuni ko‘rsatadiki, metafizikada aytilgan hukmlarni hissiy ma’lumotlarga tadbiq qilib bo‘lmasligi asosida uni rad etish, mantiqiy jihatdan fundamental fanlarning butun nazariy asoslarini rad etishga olib keladi.

Popper o‘zining – Ochiq jamiyat va uning dushmanlari asarida tarixiy jarayon haqidagi fikrlarini rivojlantirib, ochiq jamiyat to‘g‘risida gapiradi. Ochiq jamiyat haqida gapirib, Popper bunday jamiyatning huquqiy, axloqiy, iqtisodiy, siyosiy qonuniyatlarini ochib beradi. Aksincha, bu qonuniyatlarni ochish tarixiylikka olib keladi, deydi. Tarixiylik esa, uning fikricha, irratsionalizmdir.

Popperning fikricha, Marksning dunyoqarashi XX asrning butun mafkurasi va ijtimoiy amaliyotiga mohiyatan kuchli ta’sir o‘tkazdi. Bu ta’limot bayrog‘i ostida juda ham xilma-xil, ba’zida esa qarama-qarshi harakatlar: sotsial- demokratlar, kommunistlar, milliy-ozodlik, o‘ta murosasiz kuchlar faoliyat ko‘rsatib, ijtimoiy inqiloblar va siyosiy to‘ntarishlarni amalga oshirdilar. Garchi markscha ta’limotning asoschilarining o‘zi o‘z qarashlarini qotib qolgan qat’iy e’tiqodga aylantirishga qarshi chiqqan bo‘lsalar ham, muayyan tarzda talqin qilingan va muqaddaslashtirilgan marksizm sotsialistik lager mamlakatlarining rasmiy mafkuraviy ta’limotiga aylantirildi. Markscha ta’limotni asliga muvofiq aqidaga aylantirilishi va uni siyqalashtirilganligi (stalincha ta’limotda va unga qardosh bo‘lgan moizm, chuxche va boshqa oqimlarda) XX asrda G‘arbiy Evropa va AQSH da tanqidiy va g‘arb

marksizmini (neomarksizm) paydo bo‘lishiga olib keldi. G‘arb neomarksizmning bosh vazifalaridan biri Marks g‘oyalarini totalitar ruhdagi talqinlardan tozalash edi.

Karl Popper mantiqiy pozitivizm ta’siri ostida bo‘lgan, lekin o‘zining falsafiy konsepsiyalari - tanqidiy ratsionalizm, ilmiy bilimning ortishi haqidagi nazariya va falsifikatsionizmni neopozitivizmga qarshi qo‘ygan. Popper mantiqiy empiristlarning, ilmiy mulohazalar mezoni verifikatsiya tamoyili degan fikriga qarshi falsafaning asosiy vazifalaridan biri sifatida demarkatsiya muammosi (ilmiy bilimni noilmiy bilimdan ajratish) ni ilgari surgan. Popperning fikriga ko‘ra, demarkatsiya usuli - falsifikatsiyadir, ya’ni fanga tegishli bo‘lgan har qanday fikrni inkor etish. U mantiqiy pozitivistlarning tor empirizmidan hamda bilimning mutlaq ishonchli asosini izlashdan voz kechdi.

Popperning qarashlariga ko‘ra, bilimning empirik va nazariy darajalari bir - biri bilan uzviy darajada bog‘liqdir; har qanday ilmiy bilim faqat gipotetik, taxminiy harakterga ega va xato (fallibilizm tamoyili) bo‘lishi mumkin. Ilmiy bilimning ortishi dadil gipotezalarni ilgari surish va ularni rad etilishini amalga oshirishdan iboratdir. Buning natijasida muhim bo‘lgan muammolar hal etiladi va bu jarayon unda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Popper o‘zining mantiqiy - metodologik va kosmologik konsepsiyalarini asoslash uchun neodarvinizm va emerjent rivojlanish g‘oyalaridan foydalangan. U ilmiy bilimning ortishini dunyodagi umumiy evolutsion jarayonlarning xususiy ko‘rinishi sifatida tushunadi. Popper tomonidan ilgari surilgan uch dunyo metafizik nazariyasida bir-biriga reduksiya qilib bo‘lmaydigan jismoniy va mental dunyolarning, shuningdek obyektiv bilim dunyosining mavjudligi ta’kidlanadi. Popper, shuningdek tushuntirishning deduktiv - nomologik sxemasi asoschisidir. Bu sxemaga muvofiq, agar mulohaza muvofiq qonunlar va chegara shartlari majmuidan deduktiv ravishda chiqarilgan bo‘lsagina u tushuntirilgan hisoblanadi. Mantiqiy semantika g‘oyalariga asoslangan holda Popper ilmiy nazariya (gipoteza) lar mazmunining haqiqiyligi yoki yolg‘onchiligini aniqlash usulini taklif qildi. Ilmiy bilimni ortishi nazariyasini yaratish dasturini amalga oshirishda Popper tomonidan falsifikatsiya tamoyilining mutlaqlashtirilishi, ilmiy bilimning obyektiv jihatdan haqiqiyligini tan olmasligi, bilim asoslarini talqin etilishidagi konvensionalizm hamda obyektiv bilimning tarixiy konkret biluvchi subyektdan ajratilishi bilan bog‘liq bo‘lgan jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi.

Uning ochiq jamiyat to‘g‘risidagi ta’limoti tarixiylikka qarshidir. Ochiq jamiyat bu xalq hokimiyatining demokratik shaklidir. Bunday shakl o‘z ichiga so‘z, fikr, xususiy mulk erkinligini oladi. Xalq hokimiyatining bunday shakllari, Popper fikricha, qadimgi davrda Yunonistonning Afina shahrida mavjud bo‘lgan. Afina

demosi o‘sha davr aristokratiyasiga qarshi kurashgan. Keyinchalik ochiq jamiyatning bunday shakli Yevropaga ko‘chgan. Ochiq jamiyatning mukammal ko‘rinishi hozirgi G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida mavjuddir.

Demak, ochiq jamiyat asosi hurfikrlikdan iboratdir. Biz bu yerda inson fikrining o‘z-o‘zidan rivojini, o‘z-o‘zidan mukammallashishini ko‘ramiz. Popper o‘z ta’limotida jamiyatni tafakkur taraqqiyoti sifatida tushunadi.

Insonlar munosabati haqida fikr yuritib, Popper umuman insonni yaxshi ko‘rib bo‘lmaydi, konkret harakatlari uchun konkret insonni yaxshi ko‘rish mumkin, umumiy muhabbat yo‘qdir, deydi. Popper bu yerda Suqrotning mavhum axloq haqidagi g‘oyasiga to‘liq qo‘shiladi. Uning fikricha, tafakkur taraqqiyoti, pirovard natijada, davlatlarni, xalqlarni ochiq jamiyat lageriga o‘tishiga olib keladi. Tarixiy jarayon rivoji erkinlik rivojiga yo‘naltirilgandir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XX asrda Yevropada yashagan yangi davr falsafasining vakili Karl Popperning “Ochiq jamiyat va uning dushmanlari”, hamda boshqa asarlari, ularda bayon etilgan falsafiy, axloqiy, ijtimoiy fikrlarini tadqiq etib, tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

Karl Popper bolaligidan ko‘plab falsafiy ilmlarga qiziqqan va ular bilan shug‘ullangan. Shuningdek u sotsiologiya, politologiya, falsafa fanlari bilan qiziqqan, hayoti davomida matematika, fizika, falsafani, xattoki musiqa ilmini ham o‘rgangan;

Karl Popper mantiqiy pozitivizm ta’siri ostida bo‘lgan, lekin o‘zining falsafiy konsepsiyalari - tanqidiy ratsionalizm, ilmiy bilimning ortishi haqidagi nazariya va falsifikatsionizmni neopozitivizmga qarshi qo‘ygan. Popper mantiqiy empiristlarning, ilmiy mulohazalar mezoni verifikatsiya tamoyili degan fikriga qarshi falsafaning asosiy vazifalaridan biri sifatida demarkatsiya muammosi (ilmiy bilimni noilmiy bilimdan ajratish) ni ilgari surgan;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Falsafa ensiklopedik lug‘at. -T. , –O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -344 b.
2. Falsafa: Darslik/ Ahmedova M. A. Umumiy tahriri ostida. -T. , –O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. -496 b.
3. Skirbek G. , Gilye N. : Falsafa tarixi. — T. : –Sharq, 2002. -756 b.
4. Yo‘ldoshev, Usmonov, Karimov. Yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. 2-tom. T. , –Sharq, 2003. -345 b.
5. Альтерматт У. Философия нового времени в Европе. -М. : Российскийгос. гуманит. ун-т, 2000. -293 с.

6. К. Поппер «Логика и рост научного знания» 1983 — с. 8—11
7. Поппер Карл Раймунд, сэр — статья из Электронной еврейской энциклопедии
8. К. Поппер Архивная копия от 25 октября 2014 на Wayback Machine // Русская геополитическая энциклопедия. — 2010.